

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA
AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISHNING ZAMONAVIY BOSQICHDAGI HOLATI VA O'ZIGA
XOSLIKHLARI**

Atadjanov Murodbek Saparboevich

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi Davlat va harbiy boshqaruvi kursi
tinglovchisi*

Annotatsiya: *O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligini ta'minlashda axborot kommunikatsion texnologiyalar axborot texnologiyanining zamonaviy bosqichdagi holati, rivojlanishi, bu borada olib borilayotgan isloxoatlar, shuningdek, zamonaviy bosqichdagi holati va o'ziga xosliklari to'g'risida fikrlar va muloxazalar yuritilgan. Axborot xavfsizligi milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida tarmoqlararo xususiyatga ega bo'lib, davlatning tabiiy resurslari kabi strategik ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Milliy xavfsizlikni ta'minlashda axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi axborot-kommunikatsion tizimlari va tarmoq taxdidlariga qarshi kurashish ushbu sohada axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning va o'ziga xosliklari to'g'risida ma'lumotlar va takliflar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *axborotlashtirish, axborot kommunikatsion texnologiyalar, axborot tizimi, axborot xavfsizligi, kiber jinoyat, global axborotlashuv texnologiya, axborot texnologiyalari, axborotni muhofaza qilish.*

Kirish

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari hozirgi kunda hayotimizning barcha jabhalariga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunday zamonaviy texnologiyalar axborotlashgan jamiyat negizini tashkil etib, kishilarning og'irini yengil, uzog'ini yaqin qilmoqda. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'ziga xos jihatlaridan biri sifatida undan foydalanishning global xarakterga egaligini keltirib o'tish mumkin. Shu bois, "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" [1] qaror qabul qilingan, unga ko'ra axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini iqtisodiyotning barcha jabhalariga tatbiq etishni takomillashtirish chora-tadbirlari ta'kidlangan. Bu esa, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish milliy xavfsizlikni ta'minlashda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Axborot insoniyatning global xazinasiga aylangani bois, uning oqimini tartibga solish vaqtি keldi hamda har bir davlatning milliy xavfsizligiga tahdidlar negizida axborot katta ta'sir kuchiga ega bo'lib qoldi. Shu sababli, dunyoda kuzatilayotgan global ijtimoiy o'zgarishlar har tomonlama chuqur tahlilni va axborot sohasida ilmiy izlanishlar olib borishni talab qilmoqda. Xususan, axborot texnologiyalarining harbiy yo'nalishlar va

maxsus xizmatlar faoliyatida keng qo'llanilishi natijasida ayrim mamlakatlarda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda jiddiy muammolar yuzaga kelmoqda.

Asosiy qism. Davlat xavfsizligini ta'minlash muammosi bugungi kunda jahon miqyosidagi eng yirik muammolardan biri bo'lib qolmoqda. O'z navbatida Markaziy Osiyo mintaqasi ham xavfsizlik muammolaridan holi hudud deb ayta olmaymiz. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 20-yanvarda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining birinchi majlisidagi nutqida ham bu dolzarb masalaga to'xtalib o'tgan edi, shuningdek, «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmonida "xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlar roli va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning tuzilmasini eng avvalo xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish”[2] bo'yicha ustuvor vazifa sifatida belgilab berdilar.

O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlikni ta'minlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy bosqichdagi holati - bu nafaqat ko'plab davlatlarga axborot-kommunikatsiya texnologik infratuzilmasini rivojlantirishga imkon beradi, balki davlatning milliy xavfsizligi tahdidlariga qarshi kurashishga qaratilgan siyosiy, harbiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot, huquqiy va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yildagi 22-avgustdagい PQ-357-sonli qaroriga asosan «2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Albatta bu Farmon va uning doirasida qilingan ishlar, mamlakatimiz texnologiya asrida jaxon mamlakatlari o'rtasida munosib o'rinn egallashga hamda yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yanada rivojlanishi uchun oldinga bosilgan qadam bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, texnologiyaning rivojlanishi hamda jamiyatga foya berishining asosiy kafolatlaridan biri bu axborot xavfsizligidir, bu mavzu mamlakatimizda so'ngi yillarda o'ylantirayotgan savollardan biri bo'lib qolmoqda, chunki mazkur xaf-xatar bilan samarali kurashishda bizdan oqilona qaror qabul qilish lozim bo'lmoqda, bunday qarorni qabul qilish ta'biiyki oson emas, chunki bir tarafdan texnologiya -bu zamon talabi bo'lsa, ikkinchi tomondan esa axborot xavfsizligi uning ajralmas qismi hisoblanadi, texnologiyaning asosiy jihatni bu uning to'siqlarsiz erkin rivojlanishi ya'ni jamiyat uni xavf-xatar deb qabul qilib, qat'iy nazorat qilmoqchi bo'lsa u rivojlanmaydi balki orzu xavas bo'lib qolaveradi, agarda bunga beparvo bo'lsa u jamiyatga salbiy ta'sir qilish extimoli yuqori bo'ladi, qisqa qilib aytganda boshqarib bo'lmas ofatga aylanib qolishi xam mumkin.

O'zbekiston Respublikasida axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosati axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgandir. Unda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining asosiy vazifalari belgilanadi. Shuningdek, ushbu siyosat davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining faoliyat yo'nalişlarini, shuningdek

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolarning o'rni va ahamiyatini belgilaydi.

Axborotni muhofaza qilishning samaradorligi uning o'z vaqtidaligi, faolligi, uzluksizligi va kompleksligi bilan belgilanadi. Himoya tadbirlarini kompleks tarzda o'tkazish axborotni tarqab ketishi mumkin bo'lgan xavfli kanallarni yo'q qilishni ta'minlaydi. Ma'lumki, birgina ochiq qolgan axborotni tarqab ketish kanali butun himoya tizimining samaradorligini keskin kamaytirib yuboradi.

Axborotni muhofaza qilish sohasidagi ishlar holatining tahlili shuni ko'rsatadiki, muhofaza qilishning to'liq shakllangan konsepsiysi va tuzilishi hosil qilingan, uning asosini quyidagilar tashkil etadi:

sanoat asosida ishlab chiqilgan, axborotni muhofaza qilishning o'ta takomillashgan texnik vositalari;

axborotni muhofaza qilish masalalarini hal etishga ixtisoslashtirilgan tashkilotlarning mavjudligi;

ushbu muammoga oid etarlicha aniq ifodalangan qarashlar tizimi;

etarlicha amaliy tajriba va boshqalar.

Biroq, xorijiy matbuot xabarlariga ko'ra ma'lumotlarga nisbatan jinoiy harakatlar kamayib borayotgani yo'q, aksincha barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib bormoqda.

Umumiy yo'nalishga ko'ra axborot xavfsizligiga tahdidlar quyidagilarga bo'linadi:

O'zbekistonning ma'naviy ravnaqi sohalarida, ma'naviy hayot va axborot faoliyatida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga tahdidlar;

mamlakatning axborotlashdirish, telekommunikatsiya va aloqa vositalari industriyasini rivojlanishiga, ichki bozor talablarini qondirishga, uning mahsulotlarini jahon bozoriga chiqishiga, shuningdek mahalliy axborot resurslarini yig'ish, saqlash va samarali foydalanishni ta'minlashga nisbatan tahdidlar;

Respublika hududida joriy etilgan hamda yaratilayotgan axborot va telekommunikatsiya tizimlarining me'yorida ishlashiga, axborot resurslari xavfsizligiga tahdidlar. Har qanday axborot hisoblash tizimlarini tashkil etishdan maqsad foydalanuvchilarning talablarini bir vaqtida ishonchli axborot bilan ta'minlash hamda ularning konfedensialligini saqlash hisoblanadi. Bunda axborot bilan ta'minlash vazifasi tashqi va ichki ruxsat etilmagan ta'sirlardan himoyalash asosida hal etilishi zarur. Axborot tarqab ketishiga konfedensial ma'lumotning ushbu axborot ishonib topshirilgan tashkilotdan yoki shaxslar doirasidan nazoratsiz yoki noqonuniy tarzda tashqariga chiqib ketishi sifatida qaraladi.

Mamlakatimiz milliy iqtisodining hech bir tarmog'i samarali va mo''tadil tashkil qilingan axborot infratuzilmasiz faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Hozirgi kunda milliy axborot resurslari har bir davlatning iqtisodiy va xarbiy salohiyatini tashkil qiluvchi omillaridan biri bo'lib xizmat qilmokda. Ushbu resursdan samarali foydalanish mamlakat xavfsizligini va demokratik axborotlashgan jamiyatni muvaffaqiyatli shakllantirishni ta'minlaydi. Bunday jamiyatda axborot almashuvi tezligi yuksaladi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish bo'yicha ilg'or axborot – kommunikatsiyalar

texnologiyalarini qo'llash kengayadi. Turli xildagi axborotlar xududiy joylashishidan qat'iy nazar bizning kundalik hayotimizga Internet глобал локал kompyuter tarmog'i orqali kirib keldi. Axborotlashgan jamiyat shu kompyuter tarmog'i orqali tezlik bilan shakllanib bormokda. Axborotlar dunyosiga sayohat qilishda davlat chegaralari degan tushuncha yo'qolib bormokda. Jahon kompyuter tarmog'i davlat boshqaruvini tubdan o'zgartirmoqda, ya'ni davlat axborotlarning tarqalishi mexanizmini boshqara olmay qolmoqda. Shuning uchun xam mavjud axborotlarga noqonuniy kirish, ulardan foydalanish va yo'qotish kabi muammolar dolzarb bo'lib qoldi. Bularning bari shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligi darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Davlatning axborot

xavfsizligini ta'minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy va ajralmas qismi bo'lib, axborot himoyasi esa davlatning birlamchi masalalariga aylanmoqda. [3].

Mamlakatimizning axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan. Ta'kidlash joizki, milliy axborot tizimiga davlat organlari, shuningdek, yuridik hamda jismoniy shaxslar, tarmoq va hududiy axborot tizimlari kiradi. Axborot tizimi esa axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalaridir.

Tahlil va natijalar

Jamiyat hayotining globallashuvi va axborot kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi jamiyat hayotining turli sohalarida ham, milliy xavfsizlikni ta'minlashda ham, jumladan, mudofaa siyosatida ham tub o'zgarishlarga olib keldi. Biz qarama-qarshiliklar va muammolarni tahlil qilish orqali Rossiyaning milliy xavfsizligini ta'minlashda axborot omilining ta'siriga qiziqamiz. zamonaviy axborot texnologiyalarining omili jamiyat hayotida doimo mavjud bo'lган, lekin u ko'lami va ta'siri tubdan boshqacha edi. Zamonaviy sharoitga ko'ra, olimlarning an'anaviy g'oyalari axborot qurollari nima va axborot urushi. Asosiy tezis shundan iboratki, urushni ko'proq "tsivilizatsiyalashgan" tarzda olib borish mumkin. Dushman hududiga tanklarni kiritish o'rниga, siz uni zaiflashtirishingiz mumkin uning axborotni boshqarish tizimini yo'q qilish orqali yanada samarali.

Shuni yodda tutish kerakki, zamonaviy dunyoda xavf nafaqat haqiqiydir mavjud, an'anaviy tahdidlar, shuningdek, tan olinmagan va hatto sof tahdidlar gipotetik xarakterga ega. Ushbu turdag'i tahdidlar qatoriga, birinchi navbatda, turli xil tahdidlarni joriy etish va amalga oshirish orqali mamlakat aholisining ommaviy ongiga ta'sirini kiritish kerak. madaniy yadroni yo'q qilishning bevosita maqsadi bilan ijtimoiy texnologiyalar odamlar, dunyoqarashning "markaziy matritsasi" ni, qiymat koordinatalari tizimini demontaj qilish, tarixiy xotirani demontaj qilish va oxir-oqibat davlat tizimini o'zgartirish.

Ukraina inqirozi yaqqol ko'rsatdiki, o'zining geostrategik maqsadlariga erishish uchun G'arb mamlakat ichidagi vaziyatni beqarorlashtirish uchun har xil turdag'i harakatlarni amalga oshiradi va rus xalqi birligining qulashi. Bunday harakatlar orasida

axborot qurollari va axborot urushi texnologiyalari alohida o‘rin tutadi. So‘nggi paytlarda "axborot urushi" tushunchasi ilmiy qo‘llanila boshlandi, bu odatda axborot sohasidagi kurashni anglatadi. qarama-qarshi tomonning axborotiga, axborot tizimlariga murakkab buzg‘unchi ta’sir ko‘rsatish, shu bilan birga o‘z axborotini, axborot tizimlarini va axborot infratuzilmasini bunday ta’sirdan himoya qilish. Yakuniy maqsad Axborot urushi - bu qarama-qarshi tomondan axborot ustunligini qo‘lga kiritish va saqlab qolishdir [4].

Buning uchun quyidagi texnika va usullar keng qo‘llaniladi:

faktlarni uydirma;

axborotni bostirish;

axborot shovqinini yaratish;

fikrlar ko‘pligi ko‘rinishini yaratish;

Mualliflar G’aniev S., Karimov M., Tashev K. “Axborot xavfsizligi” - Toshkent 2008-yil[5].

Unda axborot xavfsizligiga tahdidlar, xavfsizlikni ta’minalashning asosiy yo’llari, axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarga suqilib kirishlarni ta’minalash, simsiz aloqa tizimlarida axborotlarni himoyalash mavzularini o‘qib o‘rganib chiqilgan. Hodisalarni yoritishda ishlatalidigan so‘z va tushunchalarning ma’nosini o‘zgartirish bilan axborot urushi tizimi to‘liq sinovdan o’tkazildi Iroqdagi urush (2003). U erda AQSh o‘zining nodavlat va notijorat tashkilotlaridan foydalanadi tashkilotlar bu mamlakatning davlat tuzilmasini buzuvchi tuzilmani yaratdilar. Axborot urushining ahamiyatini AQShda tashkil etilgan axborot qo’shnirlari yetti yildan beri bo’linmalar ishlab chiqarayotgani ham tasdiqlaydi. Bugungi kunda AQSh Mudofaa vazirligining direktivalari aholini va umuman mamlakatni axborot urushlariga tayyorlash tartibini batafsil bayon qiladi. O‘z samaradorligi bo‘yicha axborot qurollarini ommaviy qirg‘in qurollari bilan solishtirish mumkin. Axborot qurollarining ta’sir doirasi kengayishi mumkin kompyuter tarmoqlariga viruslar kiritish va davlat boshqaruvi tizimidagi axborotni yo‘q qilishdan oldin odamlarning ruhiy salomatligiga zarar yetkazish. Pentagon XXI-asrda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan urushlarni usullar va texnologiyalar yordamida simulyatsiya qilish uchun superkompyuterlardan foydalanadi. Axborot xavfsizligi masalalarini yoritadigan www.attrition.org saytida nafaqat AQShdagi vaziyatlar, balki dunyo miqyosidagi holatlар haqidagi ma'lumotlar berilgan. Unga ko‘ra, 2007-yilda 162 million shaxsiy ma'lumotlar o‘g’irlanishi holatlari qayd qilingan. 2006-yilda bu ko‘rsatkich 49 millionni tashkil etgan [6].

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki xavfsizlik vazifalari Axborot xavfsizligi muammolari, bugungi kunda axborot sohasini rivojlantirish hamda axborot xavfsizligini ta’minalashga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi “Axborot asri” da axborot texnologiyalari inson faoliyatining har qanday sohasida muhim ahamiyat kasb etib, qo‘llash sohalari ko‘p tarmoqlidir. agar kompyuter tizimida yuzaga keladigan nizolar va xatolar jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Buning isboti sifatida, dunyoning yetakchi mamlakatlari Xitoy, Malayziya, Yaponiya va Yevropaning bir qator mamlakatlari, shu asrgacha bo‘lgan aksar ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini aynan texnologiyalarga tayanishi, ularni ishlab chiqishi va undan oqilona foydalanishi natijasida

hozirgi ko‘rinishiga keldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Takliflar axborot xavfsizligiga hozirgi vaqtdagi tahdidlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va to‘plash, davlat organlari va tashkilotlari axborot tizimlari, resurslari va ma’lumotlar bazalariga noqonuniy kirib olish holatlarining oldini olishni ta’minlaydigan samarali tashkiliy va dasturiy-texnik yechimlarni tezkor qabul qilish bo‘yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish;

axborotlashtirish ob‘ektlarida (davlat sirlari bundan mustasno) apparat vositalari va dasturiy mahsulotlarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, telekommunikatsiya jihozlari va boshqa texnik vositalarni attestatsiya, ekspertiza va sertifikatsiyadan o‘tkazish;

davlat axborot tizimlari va resurslari, shuningdek, internet tarmog‘i milliy segmentining axborot xavfsizligini ta’minalash sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Umuman olganda, mamlakatimizda texnologiyalarni keng joriy qilish va xayotga tadbiq etish bilan birgalikda mazkur soxadagi xuquqbuzarliklarni (jinoyatlarni) oldini olish va bunday xatarlarga tayyor turish, texnologik zamon talabi hisoblanadi, albatta bu soxadagi barcha kriminogen elementlarni mutloq oldini olishni imkoniyati bo‘lmaseda, lekin uni ijobjiy muvozanatda nazorat qilish davlatning xuquq-tartibot funksiyasidan kelib chiqib, bu borada muntazam tarzda yuqori dinamikada tizimli ishlar olib talab etiladi, aks xolda bu imkoniyatlar jamiyatni tanazzulga uchrashishigacha xam olib keluvchi omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xulosa o‘rnida, axborot texnologiya soxasi tom ma’noda, bu ma’lum bir jamiyatni tezda rivojlanishiga katta turki bo‘lib xizmat qilishi yoxud jamiyatning kushandasiga xam aylanishi mumkin desak bo‘laveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1730-sonli qarori. Qonun hujatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2017 y., 07/17/3415/0345-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so‘zi, 2017 yil 8 fevral, 28 (6722)-soni.
3. D.B.Abdurahimov, U.S.Jo’raev , D.E.Tos temirov. Axborotlarni himoyalash. Uslubiy ko’rsatma. GulDU, 2014 y, 190 b.
4. Axborot xavfsizligi (“Ijtimoiy ta’minotning dolzarb muammolari” ijtimoiy-siyosiy loyihasining 2-kitobi). M.: “Qurol va texnologiyalar”, 2009. 456 b.
5. S.K.G’aniev, M.M. Tarmoqlarida informatsiya himoyasi. //Yu talab. uchun o’quv qo’llanma.-TDTU, 2003.
6. «Kompyuter-press» jurnali. 2008 yil №1 soni.